

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 5, 31 Май**

**KREDITLAR BOZORI VA QARZ YUKI OSHISHI BILAN BO'GLIQ  
JARAYONLAR TAHLILI**

**Qarshiyev Muzaffar Akbar o'g'li**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar)" ta'lim

yo'nalishi 2-kurs magistranti

[qarshiyvmuzaffar984@gmail.com](mailto:qarshiyvmuzaffar984@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Maqolada, dastlab, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda monetar instrimuntlar bo'lgan kreditlar bozori hamda qarz yuki haqida umumiy ma'lumot beriladi. So'ngra, iqtisodiyotda ushbu mavjud holatlar tahlili yoritib beriladi. Mavzu bo'yicha xulosalar samarali yechimlarga asosiy e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** Kreditlar, kredit qo'yilmalar, mikroqarz va mikrokreditlar, aholi kreditlari dinamikasi, aholi qarzi, aholi jon boshiga real daromadlar.

**ANALYSIS OF INFLATED PROCESSES WITH AN INCREASE IN THE  
LOAN MARKET AND DEBT BURDEN**

**ABSTRACT**

At first, the article provides general information about the loan market and the debt burden, which are monetary instruments in the regulation of the economy by the state. Then, the analysis of these existing situations in the economy will be highlighted. Conclusions on the topic focus on effective solutions.

**Keywords:** Loans, loan investments, microcarz and microloans, population loan dynamics, population debt, real income per capital.

**АНАЛИЗ КРЕДИТНОГО РЫНКА И ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С  
УВЕЛИЧЕНИЕМ ДОЛГОВОЙ НАГРУЗКИ**

**АННОТАЦИЯ**

Вначале в статье даются общие сведения о кредитном рынке и долговой нагрузке, которые являются монетарными инструментами регулирования экономики со стороны государства. Затем будет сделан акцент на анализе этих

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444


Том 2, Выпуск 5, 31 Май

текущих ситуаций в экономике. Выводы по теме ориентированы на эффективные решения.

**Ключевые слова:** Кредиты, кредитные депозиты, микрозаймы и микрозаймы, динамика кредитов населения, задолженность населения, реальные доходы на душу населения.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan faol monetar siyatiga bog'liq. Shu asosida davlatimizning raqobatbardoshligi va, eng asosiysi, aholi farovonligini tubdan oshirilishi, yangi korxonalar va tarmoqlar, yangi ish o'rinlari yaratilishi, shuningdek, monetar siyosatni to'g'ri tashkil qilib, yuqori samara beradigan darajada siyosatni yuritish va olib borish iqtisodiyotni ijobiy o'zgarishini hosil qiladi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotdagi erkinlashish jarayonlari, moliyaviy xizmatlarning ommabopligi ortishi hisobiga kredit qo'yilmalarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Bunda aholiga ajratilgan kreditlar hajmi 2019-2023-yillarda o'rtacha yillik 48,2 foizga oshib, iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari o'sishiga yuqori hissa qo'shdi (1-rasm).



**1-rasm. Aholi kreditlari dinamikasi (yillik o'sish, foizda)<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Markaziy bank hisob-kitoblari ma'lumotlari asosida


# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Aholiga ajratilgan chakana kreditlarning yillik o'sish sur'atlarida 2020-yilning 2-yarmidan boshlab muvozanatlashuv kuzatilgan bo'lsa ham, 2022 yilning 2-yarmidan tijorat banklarining avtokreditlar va mikroqarzlarni ajratish faolligining keskin ortishi hisobiga chakana kreditlarning yillik o'sish sur'atida tezlashish kuzatilmog'da. O'sib borayotgan talab va turmush darajasining yaxshilanishi iste'molchilarning ipoteka va iste'mol kreditlariga bo'lgan talabining o'sishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2020-2023 yillarda ajratilgan kreditlarda avtokreditlar (o'rtacha ulushi – 29 foiz), ipoteka kreditlari (23 foiz), mikroqarz va mikrokreditlarning (38 foiz) ulushi yuqori bo'ldi (2-rasm).



**2-rasm. Aholiga ajratilgan kreditlar tarkibi (ulushi, foizda)**

Kreditlashning yuqori darajasi aholining moliyaviy holati, yalpi iste'mol hajmi va pirovardida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga qaramay, tizimda ma'lum xatarlarni yuzaga keltirishi va moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatuvchi xatarlarni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun uzoq muddatli istiqbolda banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kreditlash tendensiyalarini maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>2</sup> Markaziy bank hisob-kitoblari ma'lumotlari asosida


# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Ushbu xatarlarni baholashda kreditlarning depozitlarga nisbati va aholining qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari o'ziga xos o'ringa ega. Kreditlarning depozitlarga nisbati bank tizimi uchun likvidlik xatarini, xorijiy depozitlar va liniyalarga bog'liqlik darajasini, qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi esa kredit xatarini o'zida ifoda etadi. Aholi kreditlarining depozitlariga bo'lgan nisbati yuqori (2019-2023-yillarda o'rtacha - 167 foiz) va so'nggi yillarda yanada ortgan bo'lib, kreditlarga bo'lgan yuqori talab asosan tashqi va markazlashgan resurslar hisobidan qoplab kelingan (3-rasm).



**3-rasm. Aholi kreditlarining depozitlarga nisbati<sup>3</sup>**

Biroq, 2022-yilning 2-yarmidan boshlab tashqi moliyalashtirishning qimmatlashishi hisobiga tijorat banklari ko'proq ichki resurslarga e'tibor qaratayotganligi hisobiga kelgusi choraklarda ushbu nisbatning ma'lum darajada yaxshilanishi kutilmoqda. Qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi (debt-to-service ratio) aholining kreditlar bo'yicha har oylik to'lovlarining aholi daromadlariga nisbatini o'zida ifoda etadi. Ushbu ko'rsatkichdan qarz oluvchilarning moliyaviy imkoniyatlarini baholash va ularning kreditlarni to'lash qobiliyatini aniqlash uchun keng qo'llaniladi.

Boshqacha aytganda, qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi aholi daromadlarining qancha qismi qarz majburiyatlarini bajarish uchun sarflanishini hisoblashdan iborat. Agar ushbu ko'rsatkich yuqori bo'lsa, bu

kelgusida moliyaviy tizim barqarorligiga bo'lgan xatarlar ehtimolini oshiradi.

<sup>3</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari




# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi (debt-to-service ratio) so'nggi choraklarda sezilarli oshgan bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek, chakana kreditlardagi o'sish sur'atlari bilan izohlanadi. Ushbu ko'rsatkich 2021-yil 1-chorakdagi 7,4 foizdan 2023-yilning 2-choragida 12 foizgacha oshgan (4-rasm).



#### 4-rasm. Aholining choraklik qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi<sup>4</sup>

Shuningdek, iqtisodiyotdagi kreditlash hajmiga baho berishda aholi kreditlarning YaIMga nisbati ko'rsatkichidan keng foydalaniladi va ushbu ko'rsatkich orqali davlatlar kesimida moliyaviy ommaboplik holatini solishtirish mumkin.

Mamlakatimizda ushbu ko'rsatkich 2017-yildagi 4 foizdan 2022-yil yakuni bo'yicha 11 foizgacha ortgan. Taqqoslash uchun, ushbu ko'rsatkich Ozarbayjondan biroz yuqori bo'lib, Gruzuya, Armaniston, Rossiya va Qozog'istondagi ko'rsatkichlarga nisbatan sezilarli darajada past hisoblanadi(5-rasm).


<sup>4</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май



## 5-rasm. Aholi kreditlarining YaIMga nisbati<sup>5</sup>

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) aholi qarzi ko'rsatkichi mamlakatdagi uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligi va farovonligini tahlil qilish uchun muhim ko'rsatkich hisoblanib, aholining barcha qarz majburiyatlarining sof ixtiyoriy daromadlariga nisbatini o'zida aks ettiradi.

Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi aholining moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi yoki to'lovga layoqatsiz bo'lishi ehtimolini ifoda etadi. O'zbekiston uchun aholi qarzi ko'rsatkichi 17 foizga teng bo'lib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan hisoblangan aksariyat rivojlanayotgan davlatlar ko'rsatkichlariga nisbatan ancha past hisoblanadi. Solishtirish uchun ushbu ko'rsatkich Chexiya va Estoniyada 70 foizdan yuqori, Vengriya va Litvada 45 foiz hamda Rossiya va Latviyada 37 foizga teng (6-rasm).


<sup>5</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023


SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май



**6-rasm. Aholi qarzi ko'rsatkichi<sup>6</sup>**

Aholi daromadlari dinamikasi kelgusi davrlar uchun qarz yukini prognoz qilishda muhim hisoblanib, mamlakatimizda so'nggi yillarda aholi daromadlarining real hisobda yuqori o'sayotganligi (yillik o'rtacha 5-6 foiz) kuzatilmoqda (7-rasm).



**7-rasm. Aholi jon boshiga real daromadlar<sup>7</sup>**

<sup>6</sup> Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(2023), Aholi qarzi ko'rsatkich

<sup>7</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА


Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining saqlanib qolishi o'rta muddatli istiqbolda ham aholi daromadlarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilishini bildiradi. Shuningdek, aholi daromadlarining kreditlariga nisbati aholining yangi kreditlar olish uchun "buferini" o'zida aks ettiradi. Mazkur ko'rsatkich 2023-yilning 2-choragida 157 foizga teng bo'lib, kelgusi yillarda ham aholining kredit xizmatlariga bo'lgan yuqori talabning saqlanib qolishini o'zida ifoda etadi (8-rasm). Aholi kreditlari yalpi iste'mol talabiga va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, inflyatsiya darajasiga bosimlarni yuzaga keltirishi va qarz yukining yuqori o'sishi sharoitida moliyaviy tizim barqarorligi bo'yicha xatarlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Avvalgi yillarda aholiga kredit ajratish amaliyoti ma'lum darajada

cheklanganligi sababli mamlakatimizda chakana kreditlarning jami kredit qo'yilmalaridagi ulushi yoki YaIMga nisbati past darajada bo'lib, so'nggi 4-5 yildagi yuqori o'sish sur'atlari aynan jamg'arib kelingan "kechikkan talab"ning yuzaga chiqishini o'zida ifoda etadi.



## 8-rasm. Aholi daromadlarining bank qarzдорligiga nisbati <sup>8</sup>

Aholi kreditlari bo'yicha yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar ma'lum muvozanat darajasiga yetmaganligi sababli o'rta muddatli istiqbolda ham kreditlarga bo'lgan yuqori talabning saqlanib qolishi kutilmoqda. Bunda, chakana kreditlarga bo'lgan "chanqoqlik" sababli aholining foiz stavkalari o'zgarishiga

<sup>8</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

ta'sirchanligi nisbatan past bo'lib, aholi kreditlari o'sishini muvozanatlashtirishda makroprudensial siyosat choralaridan faol foydalanish ahamiyati oshib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kreditlar bozori va qarz yuki oshishi bilan bog'liq muammolar, jismoniy shaxslar, korxonalar, va mamlakatlar uchun katta o'rinda ega bo'lishi mumkin. Bu muammolar aynan qanday hal qilish kerakligiga qarab o'zgartiradi, ammo umumiy ravishda quyidagi yechimlar ko'rsatiladi:

1. **Moliyaviy rivojlanish va strategik moliyaviy boshqaruv**
2. **Kreditga tashrif buyurish**
3. Kredit qabul qilishda yopiqlik va maslahatchilik
4. **Qarz yukini to'g'ri boshqarish**
5. **Moliyaviy tiklanishni mustahkamlash**
6. **Innovatsion hodisalar**

Moliyaviy rivojlanish va strategik moliyaviy boshqaruv: Davlatlar va shaxsiy kompaniyalar uchun, moliyaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy sifatni oshirish, va kreditlarni samarali shaklda boshqarish uchun stratejiyo tadbirlarni olish juda muhimdir.

Kreditga tashrif buyurish: Kreditni o'zgartirish, muddati uzaytirish yoki qulay shartlar yaratish orqali, kredit olish shartlarini yaxshilash mumkin.

Kredit qabul qilishda yopiqlik va maslahatchilik: Kreditlarni qabul qilishda ochiqlik va maslahatchilik juda muhimdir. Mijozlar kredit shartlarini tushunish va ularning samimiy ehtiyotkorliklari haqida ma'lumot olishlari kerak.

Qarz yukini to'g'ri boshqarish: Qarz yuki to'g'ri boshqarish uchun kredit olish va unga to'lovlarni muddatida amalga oshirish kafolatlangan. Buning uchun moliyaviy tahlil va boshqaruvning juda muhim bo'lishi kerak.

Moliyaviy tiklanishni mustahkamlash: Omonatlar, sug'urta va boshqa moliyaviy vositalarni mustahkamlash muhimdir. Bu, kreditlarni to'g'ri boshqarish, unga to'lovlarni amalga oshirish va kredit kafolatlarini ta'minlashga yordam beradi.

Moliyaviy ta'lim va ko'nikmalar: Kreditlarni olish va ular bilan ishlash haqida ko'nikmalar va ma'lumotga ega bo'lish juda muhimdir. Moliyaviy ta'lim va moliyaviy menejmentning zarur bo'lgan yo'nalishlari ustida ishlash muhimdir.

Innovatsion hodisalar: Innovatsiyalar, avtomatlashtirish va yangi texnologiyalar yordamida kreditlarni boshqarish va kafolatlarini ta'minlashda qulayliklar yaratish muhimdir.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Bular muammolarga yechim topishda yordam beradigan umumiy qarorlar bo‘lib, har bir hol uchun alohida yechimlar ham mavjud bo‘lishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyayev 2019-yilning 18-noyabrdagi “Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5877-sonli farmoni.
- 2.H.P.Abulqosimov, O.Y.Xamrayev. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. O‘quv qo‘llanma.Toshkent.IQTISOD-MOLIYA’-2014.-304b.
- 3.S.Yunusova. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. O‘quv uslubiy majmua.Namangan. -2022.-224b.